



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



### DAVLAT ORGANLARINI XALQA XIZMAT QILISHINING SAMARALI VOSITASI

**Suyarova Orzigul Sodiq qizi**

*Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti*

*Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi yo'nalishi*

*Maktabgacha ta'lim Magistranti*

*e-mail; [suyarovaorzigul33@gmail.com](mailto:suyarovaorzigul33@gmail.com)*

**Annotatsiya;** *Ushbu maqolada davlat organlarining xalqqa xizmat qilish samaradorligini oshirishda qo'llaniladigan asosiy vosita va mexanizmlar tahlil qilinadi. Xususan, "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak" tamoyili asosida joriy etilgan islohotlar, ochiqlik va shaffoflik siyosati, raqamlashtirish, jamoatchilik nazorati va xizmat ko'rsatish sifatini baholash tizimi yoritiladi. Shuningdek, davlat xizmatlarini soddalashtirish, korrupsiyani kamaytirish va fuqarolar murojaatlariga tezkor javob berishning ahamiyati ko'rsatib beriladi.*

**Kalit so'zlar** *Davlat organlari, xalqchil boshqaruv, xizmat ko'rsatish sifati, shaffoflik, ochiqlik, raqamlashtirish, jamoatchilik nazorati, tezkorlik, islohotlar, samaradorlik.*

### ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ОБСЛУЖИВАНИЯ НАСЕЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННЫМИ ОРГАНАМИ

**Суярова Орзигул Содик кизи**

*Шахрисабзский государственный педагогический институт*

*Направление: Теория и методика обучения и воспитания*

*(дошкольное образование) Магистрант:*

*E- mail: [suyarovaorzigul33@gmail.com](mailto:suyarovaorzigul33@gmail.com)*

**Аннотация:** *В данной статье анализируются основные механизмы и инструменты, направленные на повышение эффективности обслуживания населения государственными органами. Освещаются реформы, основанные на принципе «Не народ должен служить государственным органам, а государственные органы – народу». Рассматриваются вопросы цифровизации, прозрачности, общественного контроля, повышение качества государственных услуг, сокращение бюрократических барьеров и оперативное рассмотрение обращений граждан.*

**Ключевые слова:** *государственные органы, качество услуг, прозрачность, открытость, цифровизация, общественный контроль, эффективность, реформы, оперативность.*



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



## EFFECTIVE MECHANISMS FOR PUBLIC SERVICE DELIVERY BY GOVERNMENT BODIES

**Suyarova Orzigul Sodiq qizi**

*Shahrisabz State Pedagogical Institute*

*Theory and Methodology of Education and Upbringing*

*(Preschool Education) Master’s Student:*

*E-mail: [suyarovaorzigul33@gmail.com](mailto:suyarovaorzigul33@gmail.com)*

**Abstract:** *This article examines the key mechanisms and tools aimed at improving the effectiveness of public service delivery by government bodies. It highlights reforms based on the principle: “Government bodies must serve the people, not the other way around.” The study covers topics such as digitalization, transparency, public oversight, service quality improvement, reduction of bureaucratic barriers, and timely response to citizens’ requests.*

**Keywords:** *government bodies, service quality, transparency, openness, digitalization, public oversight, efficiency, reforms, responsiveness.*

Bugungi globallashuv va axborot tezkor almashinuvi jarayonida davlat boshqaruvi tizimi oldiga qo‘yilayotgan talablar yanada oshib bormoqda. Xususan, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan tamoyil turadi. Mazkur yondashuv davlat organlari faoliyatini tubdan yangilash, ularning jamiyat va fuqarolarga nisbatan mas’uliyatini kuchaytirish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishni talab qiladi.

Davlat xizmatlarini modernizatsiya qilish, jarayonlarni raqamlashtirish, byurokratik to‘siqlarni qisqartirish, murojaatlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bugungi davlat boshqaruvidagi eng muhim vazifalardan biridir. Aholi manfaatlarini, ehtiyojlari va murojaatlariga tezkor, adolatli va sifatli javob qaytarish davlat organlari samaradorligining bosh mezoniga aylanib bormoqda. Shu sababli ushbu maqolada davlat organlarining xalqqa xizmat qilish samaradorligini ta’minlashda qo‘llanilayotgan zamonaviy vosita va mexanizmlar, ularning afzalliklari, mavjud muammolar va istiqboldagi vazifalar ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Shu bilan birga, fuqarolarning siyosiy faolligi, ochiqlik siyosati, davlat organlarining xalq bilan muloqoti mexanizmlari tubdan yangilandi [8]. 2017–2021-yillarda amalga oshirilgan “Harakatlar strategiyasi” mamlakatni modernizatsiya qilishning poydevorini yaratdi. Unda besh ustuvor yo‘nalish — siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, xavfsizlik va tashqi siyosat sohalarida kompleks islohotlar amalga oshirildi [9]. Keyingi bosqichda, ya’ni 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi” esa shu yo‘nalishlarni chuqurlashtirishni ko‘zda tutadi. Unda 100 ta ustuvor maqsad, 400 dan ortiq strategik vazifalar belgilangan bo‘lib, ular mamlakatni 2030-yilgacha rivojlantirishning asosiy dasturini tashkil etadi [10, 11]. Yangi O‘zbekiston siyosatining markazida inson qadri turadi.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



“Inson qadri uchun” tamoyili davlat siyosatining bosh mezoniga aylangani ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillarini mustahkamladi [12]. Aholining ijtimoiy himoyasi, ayollar va yoshlar siyosati, nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash masalalari ham yangicha yondashuv asosida yo‘lga qo‘yildi [13, 14]. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining eng muhim yo‘nalishlaridan biri iqtisodiy sohada chuqur tizimli islohotlarni amalga oshirishdir. 2017-yildan boshlab mamlakat iqtisodiyotini liberallashtirish, tad birkorlikni qo‘llab-quvvatlash va investitsiya muhitini yaxshilash borasida tub o‘zgarishlar ro‘y berdi [9]. Davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki bosqichma-bosqich qisqartirilib, bozor mexanizmlarining ustuvorligi ta‘minlandi. Bunda Prezidentning “Tadbirkorlikni rivojlantirish – iqtisodiy o‘shishning asosiy drayveri” degan tamoyili asos qilib olindi [3]. Shu yo‘lda 2020-yilda “Raqamli iqtisodiyot konsepsiyasi” va “Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi” qabul qilinib, kichik biznes subyektlari uchun soliq imtiyozlari, kredit yengilliklari va eksport rag‘batlari joriy etildi [10, 15]. Jahon banki hisobotiga ko‘ra, O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining o‘shish sur‘ati 2021–2023-yillar oralig‘ida 5–6% atrofida bo‘lib, bu Markaziy Osiyo mintaqasida eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi [11]. Bu natijalar mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy modernizatsiya va tashqi sarmoyalarni jalb etish siyosati samaradorligini ko‘rsatadi. Shuningdek, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasining 2-yo‘nalishi aynan “raqobatbardosh milliy iqtisodiyotni shakllantirish” masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda sanoatni diversifikatsiya qilish, agrosanoat klasterlarini rivojlantirish, eksport geografiasini kengaytirish kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilangan [10]. Globallashuv jarayonida davlat boshqaruvi tizimining ahamiyati ortib borayotgan bir paytda, davlat organlari faoliyatini tubdan yangilash, ularning fuqarolar bilan samarali muloqotini ta‘minlash hamda xizmat ko‘rsatish madaniyatini yangi bosqichga ko‘tarish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan keng ko‘lamli demokratik islohotlar, ayniqsa, so‘nggi yillarda davlat boshqaruvi tizimida amalga oshirilgan o‘zgarishlar ushbu jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib xizmat qilmoqda. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan tamoyil davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarda mutlaqo yangi konsepsiyani shakllantirdi. Mazkur tamoyil davlat organlari faoliyatini faqat buyruq va nazorat asosidagi tizim emas, balki – aholining ehtiyojlarini anglaydigan, ularga tezkor, sifatli va adolatli xizmat ko‘rsatadigan, jamoatchilik bilan ochiq muloqot olib boradigan tizimga aylantirishni ko‘zlaydi. Shu sababli davlat xizmatlari sifatini oshirish, xizmat ko‘rsatish jarayonlarini soddalashtirish, murojaatlar bilan ishlash mexanizmlarini takomillashtirish, axborot ochiqligi va shaffoflikni ta‘minlash bugungi kunda bosh islohotlarning asosi sifatida qaralmoqda. Davlat organlarining xalqqa xizmat qilish tamoyili; Davlat organlarining xalqqa xizmat qilishi – bu nafaqat ma‘muriy vazifa, balki demokratik jamiyatning asosiy mezonidir. Mazkur tushuncha quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi: Fuqarolarga yo‘naltirilgan boshqaruv. Davlat organlari faoliyatida fuqarolarning manfaatlari birinchi o‘ringa qo‘yiladi. Har bir qaror, qabul qilingan har bir me‘yoriy-huquqiy hujjat aholi



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



farovonligini oshirishga, hayot sifatini yaxshilashga xizmat qilishi lozim. Ochiqlik va shaffoflik. Davlat idoralari faoliyati, byudjet xarajatlari, davlat xaridlari, qarorlar jarayoni, statistika va boshqa ma’lumotlar ochiq bo’lishi fuqarolarning davlatga ishonchini kuchaytiradi.

Hisobdorlik. Davlat xizmatchisi qarorlar uchun javob beradi. Fuqarolar oldida mas’ul bo’lish — xizmat ko’rsatish sifatining oshishiga sabab bo’ladi. Davlat organlarining samarali xizmat ko’rsatish vositalari. Raqamlashtirish – asosiy harakatlantiruvchi kuch. So‘nggi yillarda davlat xizmatlarining katta qismi elektron shaklga o‘tkazildi. Bu esa: navbatlarni kamaytirdi, inson omilini qisqartirdi, korrupsion omillarni bartaraf etdi, xizmat ko’rsatish vaqtini ancha tejadi. Yagona Interaktiv Davlat Xizmatlari Portali (my.gov.uz) orqali 1500 dan ortiq xizmatlar ko’rsatilmoqda. Masalan, soliq ma’lumotnomalari, kadastr hujjatlari, jarimalarni tekshirish, guvohnoma olish, ariza yuborish kabi jarayonlar to‘liq onlayn shaklga o‘tkazildi. Ochiqlik siyosati unda: byudjet ma’lumotlari, statistika, davlat xaridlari, davlat organlari faoliyatiga doir ochiq hujjatlar joylashtirilgan. Bu esa ham tadbirkorlik, ham fuqarolik jamiyati vakillari uchun katta qulaylik yaratmoqda. Jamoatchilik nazorati. Fuqarolar davlat organlari faoliyatini kuzatish, baholash va takliflar berish orqali islohotlarning ajralmas qismiga aylandi. Jumladan: “Xalq qabulxonalari”, “Virtual qabulxona”, ijtimoiy tarmoqlar orqali murojaat qilish tizimi; samara bermoqda. Bugungi kunda fuqarolar murojaatlari davlat organlari faoliyatini baholashning eng muhim mezonlaridan biridir. Davlat xizmatchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish. Samarali boshqaruvning muhim omillaridan biri — davlat xizmatchilarining kasbiy saviyasi va ma’naviy madaniyati. Shuning uchun:

davlat xizmatchilari uchun muntazam malaka oshirish kurslari, moddiy rag‘batlantirish tizimi, halollik standartlarini joriy etildi. Boshqaruv jarayonlarini soddalashtirish. Ma’muriy tartib-taomillar soddalashtirilmoqda, hujjatlar soni kamaytirilmoqda, “bir darcha” tizimi kengaymoqda. Bu esa: ortiqcha vaqt sarfini kamaytiradi, fuqarolarga qulaylik yaratadi, ortiqcha ovoragarchilikni bartaraf etadi.

Korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari. Davlat xizmatlarida: nazoratning ochiqligi, elektron hujjatlar, davlat xaridlarining yagonalashtirilgan elektron tizimi, korrupsiyani sezilarli darajada qisqartirdi. Davlat organlarining samaradorligi qanday baholanadi?

Bugungi kunda davlat idoralarining xalqqa xizmat sifati quyidagi mezonlar asosida baholanadi.

1. Tezkorlik – xizmat ko’rsatish muddatining qisqaligi.
2. Halollik – korrupsion omillarning yo‘qligi.
3. Sifat – ko’rsatilgan xizmatning to‘g‘riligi va aniqligi.
4. Adolat – barcha fuqarolarga teng yondashuv.
5. Qulaylik – xizmat jarayonining soddaligi.
6. Mijozlarga yo‘naltirilganlik – xodimlarning muomala madaniyati.

Davlat xizmatlari sifatini oshirishda texnologiyaning o‘rni, mobil ilovalar, biometrik identifikatsiya, sun’iy intellekt asosidagi tizimlar, avtomatik navbat boshqaruvi, elektron



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



monitoring,davlat xizmatlarini yanada tez va aniq bajarishga imkon bermoqda.Shuningdek, sun'iy intellekt asosida murojaatlar mazmunini tahlil qilib, ularni tegishli idoralarga avtomatik taqsimlash tizimlari joriy etilmoqda.

- 1.Muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari
- 2.Davlat xizmatlarida mavjud ayrim muammolar
- 3.Ayrim hududlarda internet infratuzilmasi yetarli emas,
- 4.Ayrim xodimlarning xizmat ko'rsatish madaniyati past,
- 5.Ayrim jarayonlarda byurokratiya saqlanib qolgan.
- 6.Ularni bartaraf etish uchun:
- 7.Hududlarda raqamli infratuzilmani kuchaytirish,
- 8.Xodimlar uchun yagona halollik kodekslarini joriy etish,
- 9.elektron hujjat almashinuvini to'liq joriy qilish zarur.

Davlat organlarining xalqqa xizmat qilish tizimini modernizatsiya qilish davlat boshqaruvida tub burilish yasadi. Bu jarayon:shaffoflikni kuchaytirdi,fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini oshirdi,xizmat ko'rsatish sifatini yaxshiladi,jamiyatning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirdi.Kelgusida bu jarayonlar yanada chuqurlashib, davlat xizmati tizimining xalq manfaatlariga moslashuvchanligi, qulayligi va adolatligi oshadi.Bu ko'rsatkich mamlakatda ta'lim sifatining sezilarli darajada yaxshilanganini bildiradi.Yoshlar siyosati sohasida esa "Yoshlar – kelajagimiz" dasturi asosida 2021–2024-yillarda 300 mingdan ortiq yoshlar uchun bandlik, kasb-hunar va tadbirkorlik imkoniyatlari yaratildi [13]. Bu esa inson kapitalining real iqtisodiy o'sishga aylanishini ta'minlamoqda [15].Madaniyat va san'at – ijtimoiy uyg'unlik va identifikatsiya omili,Madaniyat – jamiyatning ruhiy tayanchi bo'lib, u ijtimoiy barqarorlik va milliy birlikni ta'minlaydi. "Yangi O'zbekiston madaniyatini yaratish" g'oyasi doirasida teatr, kino, musiqa va adabiyot sohalarida yangi loyihalar amalga oshirildi [6, 18].Masalan, 2022-yilda "O'zbekiston madaniy merosi" xalqaro forumi, "Sharq taronalari" festivali va "Renessans o'zbek madaniyati" loyihalari o'tkazildi [17, 18]. Bu tadbirlar nafaqat milliy o'zlikni mustahkamladi, balki O'zbekistonni dunyo madaniy makonida faol ishtirokchi sifatida namoyon etdi [19].Shuningdek, "Madaniy diplomatiya" konsepsiyasi asosida O'zbekistonning xorijdagi madaniyat markazlari faoliyati kengaytirilmoqda. Bugungi kunda Toshkent, Samarqand, Parij, Istanbul va Tokio shaharlarida o'zbek madaniyati markazlari faoliyat yuritmoqda [18, 19].Ma'naviy yangilanishda ommaviy axborot vositalari va raqamli madaniyatning o'rni;Axborot asrida raqamli madaniyat va ommaviy kommunikatsiya vositalari ma'naviy yangilanishning asosiy vositasiga aylandi [15, 16]. Internet madaniyati, ijtimoiy tarmoqlardagi kontent sifati, axborot xavfsizligi masalalari bevosita ijtimoiy tafakkurga ta'sir ko'rsatmoqda.Shu sababli O'zbekistonda "Axborot xavfsizligi konsepsiyasi" va "Media savodxonlik milliy dasturi" ishlab chiqildi [16]. Ularning asosiy maqsadi — yoshlarni raqamli makonda tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va ijtimoiy mas'uliyat bilan foydalanishga o'rgatishdan iborat [17].Bugungi kunda "raqamli ma'naviyat" tushunchasi Yangi O'zbekiston konseptual tafakkurining muhim



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



tarkibiy qismi sifatida shakllanmoqda [16, 18]. Ma'naviy yangilanishning ijtimoiy natijalari; Yangi O'zbekiston ijtimoiy siyosatining asosiy maqsadi — har bir fuqaroda o'z davlati va jamiyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlashdir [3, 12]. So'nggi yillarda aholining ijtimoiy faolligi, fuqarolik jamiyati institutlari soni va nodavlat tashkilotlar faoliyati Davlat organlarining xalqqa xizmat qilish tizimini modernizatsiya qilish XXI asr boshqaruv falsafasining eng muhim tamoyillaridan biri sifatida shakllandi. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat idoralarining faoliyatini xalq manfaatlariga yo'naltirish nafaqat boshqaruv samaradorligini oshiradi, balki jamiyatning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi, fuqarolik faolligini kuchaytiradi va islohotlarning barqarorligini ta'minlaydi. Yillar davomida shakllangan byurokratik an'analar, ortiqcha hujjatbozlik, ma'lumotlarning yopiq bo'lishi va fuqarolarning davlat idoralariga qiyin murojaat qilishi kabi holatlar davlat xizmatlarining samaradorligini pasaytirgan edi.

### Xulosa

Bugun esa tizimli islohotlar natijasida bularning aksariyatiga barham berildi: davlat xizmatlari raqamlashtirildi, ochiqlik va shaffoflik kuchaytirildi, korrupsion omillar keskin kamaytirildi, jamoatchilik nazorati esa davlat boshqaruvining ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, masofaviy xizmatlar, elektron arizalar, davlat xizmatlarining yagona portallar orqali taqdim etilishi fuqarolarga ulkan qulaylik yaratdi. Shu bilan birga, davlat xizmatlarining zamonaviy tizimi shuni ko'rsatadiki, samaradorlikning haqiqiy mezoni — bu qanchalik ko'p xizmat ko'rsatilgani emas, balki ushbu xizmatlarning sifati, tezkorligi, adolatliligi va fuqarolar uchun yaratilgan haqiqiy qulaylikdir. Bugungi islohotlar natijasida davlat idoralari faoliyatida “buyruq beruvchi tizim”dan “xizmat ko'rsatuvchi tizim”ga o'tish jarayoni amalda o'z tasdig'ini topmoqda. Shunga qaramay, inson resurslari sifatini oshirish, xodimlarning xizmat madaniyatini takomillashtirish, raqamli infratuzilmani yanada kengaytirish, jamoatchilik nazorati institutlarini kuchaytirish kabi vazifalar hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Ularni hal etish davlat xizmatlarining sifatini yangi bosqichga olib chiqadi va “xalq uchun xizmat qiluvchi davlat” konsepsiyasining to'liq amalga oshishiga xizmat qiladi. Umuman olganda, davlat organlarining xalqqa xizmat qilish samaradorligini oshirish — bu bir martalik tadbir emas, balki doimiy tahlil, uzluksiz yangilanish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va eng muhimi, fuqarolarning ehtiyojlarini chuqur anglashga asoslangan uzoq muddatli strategik jarayondir. Mazkur jarayonning izchil davom etishi O'zbekistonning demokratik rivojlanishini, boshqaruv tizimining ochiqligini, davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonch mustahkamligini ta'minlaydi hamda mamlakatning global maydondagi raqobatbardoshligini oshiradi.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



### Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 250 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 310 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri uchun. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2022. – 280 b.
4. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997. – 200 b.
5. Qurbonov A. O‘zbekistonda siyosiy modernizatsiya jarayonlari. – Toshkent, 2020. – 198 b.
6. Qodirov B. Renessans davri falsafasi va zamonaviylik. Samarqand, 2018. – 176 b.
7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023. – 78 b.
8. Jo‘rayev H. Fuqarolik jamiyati asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 190 b.
9. “Harakatlar strategiyasi” (2017–2021). – Toshkent: Prezident matbuot xizmati, 2017. – 60 b.
10. “Taraqqiyot strategiyasi – 2022–2026”. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, 2022. – 75 b.
11. World Bank. Uzbekistan: Modernization and Economic Transformation. – Washington, 2021. – 145 p.
12. UNDP Uzbekistan. Human Development Report 2022. – Tashkent, 2022. – 132 p.
13. OECD. Reform agenda for Uzbekistan’s inclusive growth. – Paris, 2020. – 164 p.
14. Karimova M. Gender siyosati va ijtimoiy islohotlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 180 b.
15. Rustamova N. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot, 2022. – 156 b.
16. UNCTAD. Digital Economy Report 2021. – Geneva, 2021. – 240 p.
17. Ismoilov J. Yangi O‘zbekiston ijtimoiy siyosati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2023. – 210 b.
18. UNESCO. Education and Culture in Central Asia. – Paris, 2020. – 180 p.
19. Saidov A.X. Huquqiy davlat asoslari. – Toshkent: Adolat, 2019. – 220 b.
20. IMF. Uzbekistan Economic Outlook 2023. – Washington, 2023. – 120 p.